

OHANGARON VODIYSIDA REKREATSION IMKONIYATLARNI ATROF MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASHNING TAHLILI.

Shadiyeva Hilola Dilmurad qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ohangaron vodiysi rekreatsion imkoniyatlari haqida so`z yuritilib, uning so`lim tabiatni va ularning inson salomatligiga foydalari o`rin olgan.

Kalit so`zlar: rekreatsion imkoniyatlari, Ohangaron vodiysi, atrof muhit, Antropogen faoliyat, rekreatsiya resurslar, tarixiy va badiiy qadriyatlar, o'ziga xoslik, estetik joziba, shifobaxsh.

Аннотация: В данной статье рассказывается о рекреационных возможностях долины Охангарон, ее природной природе и их пользе для здоровья человека.

Ключевые слова: рекреационные возможности, долина Охангарон, антропогенная деятельность, рекреационные ресурсы, историко-художественные ценности, самобытность, эстетическая привлекательность, оздоровление.

Abstract: This article talks about the recreational opportunities of Ohangaron Valley, its natural nature and their benefits for human health.

Key words: recreational opportunities, Ohangaron Valley, Anthropogenic activity, recreational resources, historical and artistic values, originality, aesthetic appeal, healing.

O'zbekistondagi o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan hududlaridan biri Ohangaron vodiysisidir. Ohangaron vodiysi qadimdan aholi maskanlaridan biri bo'lib, vodiy o'zining uzoq, kamida ikki ming yillik tarixiga ega. Vodiy tarixida mavjud bo'lgan joy nomlariga oid ma'lumotlar arab, fors hamda xitoy manbalarida saqlanib qolningan bo'lib, ba'zi joy nomlari so'g'd tili manbalarida ham uchraydi. Antropogen faoliyat (inson va uning faoliyatining tabiatga ta'siri) natijasidagi rekreatsiya resurslari o'ziga xos tarixiy va badiiy qadriyatlar, o'ziga xoslik, estetik jozibali va shifobaxsh va sog'lomlashtirish ahamiyati

kabi xususiyatlar tufayli tashkil etilgan faoliyat uchun ishlatalishi mumkin; Ohangaron Toshkent viloyatining mash’hur sanoat tumanlaridan sanaladi. Aslini olganda, Toshkent vohasi ikki daryo – Ohangaron hamda Chirchiq daryolari tutashishi hisobiga paydo bo‘lgan. Mintaqa o‘zining uzoq o‘tmishiga ega. Avvaliga Toshkent vohasi Shosh-IIlak deb nomlangan. Ilak – Ohangaron daryosining qadimiy nomi. Mazkur hududning Tuyabug‘uz suv ombori tomonlarida Burgulik madaniyati(eramizdan avvalgi XI-VII asrlar)ga tegishli dehqonchilikka ixtisoslashgan dastlabki qishloqlar topilgan. Ilk o‘rta asrlarda Ilakli tog‘idan tog‘ rudalarini qazib olishda keng foydalanilgan. Shuningdek, Buyuk Ipak yo‘lining bitta tarmog‘i Ohangaron orqali o‘tgan bo‘lib, u Farg‘ona vodisi(Davon davlati)ning qadimiy shaharlariga olib chiqqan. Mintaqa o‘zining noyob tabiiy imkoniyatlari: ko‘m-ko‘k tog‘ tizmalari, Arashananing billur ko‘llari va sanoqsiz o‘zbek qishloqlarini o‘rab olgan salqin soylari bilan dong taratgan. Bu yerda shuningdek, Hazrati Ali va Ertashsoy Jome masjidi kabi ziyoratgohga aylangan qadimiy ob’yektlar saqlanib qolgan. Ohangaron tumanining rekreatsion imkoniyatlari xilma-xil bo`lib, shinam tog‘li qishloqlari, joylashish va dam olish maskanlari judayam ko`p. Masalan, Ovjasoy - Ohangaron tumanining tabiiy rekreatsiya resurslari deyish mumkin. Uning xushmanzara tog‘li qishlog‘i, Sanam mahallasida joylashgan, hududi bo‘yicha Namangan viloyati va shimoliy Tojikistonning tog‘li hududlarigacha tutashib ketadi. Bu yoy o‘zining quyuq archazorlarga qurshalgan ko‘m-ko‘k tog‘ tizmalari bilan mash’hur. Hudud toza havosi, ko‘plab buloqlari, shuningdek, ajoyib o‘simlik hamda hayvonot dunyosi bilan tanilgan. Ajoyib maskan Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ushbu joylarga kelib qolgan avlodi Hazrati Ali to‘g‘risidagi rivoyat bilan bog‘lanadi. Rivoyatga ko‘ra, bu hududda katta qonli jang sodir bo‘ladi. Payg‘ambarning askarlari jangda g‘olib bo‘lgandan so‘ng Hazrati Ali hazil tariqasida minnatdorchilik sifatida tahorat qilish uchun suv so‘rab samoga murojaat etadi. Shunda unga vahiy keladi – shundan so‘ng uning qo‘li tekkan joydan buloq otilib chiqqan. Hozirda avliyoning aynan qayerda dafn etilgani to‘g‘risida aniq bir ma’lumot yo‘q. Hazrati Alining qo‘li tekkan joyda buloq paydo bo‘lgan. Faqat yetti avliyo to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud bo‘lib, ulardan biri Ovjasoy

qishlog‘ida joylashgan. Ohangaron daryosining irmog‘i hisoblangan Kunjulning yuqori qismida, Namangan viloyatining pop tumanini Toshkent viloyati bilan ajratib turgan hududda Arashan ko‘li yastangan. Ko‘l tizmasida 4 ta: Arashan, Xo‘ja Arashan, Katta va Kichik Arashan ko‘llari mavjud. Ularning hammasi baland tog‘dagi ko‘llar hisoblanadi va dengiz sathidan 2774 metrdan 3365 metrgacha balandlikda joylashgan. Ko‘llardan uzoq bo‘lmagan joyda suvining harorati butun yil davomida 36,7 gradusgacha saqlanib turadigan termal buloq bor. Rivoyatlarga ko‘ra, suv havzasi bu yerga davolanish uchun tez-tez kelib turadigan hukmdorlardan birining buyrug‘i bilan qurilgan. Tog‘ yonbag‘irlab bir necha metr tepaga ko‘tarilsangiz, tog‘ echkisi shoxlari bilan bezatilgan so‘fiylar qabriga ko‘zingiz tushadi. Aytishlaricha, aynan mana shu joyda Arashanning muqaddas himoyachisi qabri joylashgan. Ohangaronning tog‘li manzaralari, yovvoyi vodiysi, ajoyib qadamjolari, daryolari va osmono‘par tog‘lardagi ko‘llari inson salomatligi uchun g`oyatda foydali bo`lib, turli hastaliklarga shifo bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳасанов И.А., Гуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. –Тошкент: Ўқитувчи,2007. – 162 б.
2. В.Е. Чуб Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы,агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. – Тошкент: -ГМИТИ,2007. -19 с.
3. <https://iupac.org/climate-change-2021-the-physical-science-basis/>